

ABDULLA QAHHORNING SO'Z TANLASH MAHORATI**Gulmurodova Marjona Olimjon qizi***Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti**Moliya fakulteti MXVKM-70.23 talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek tili milliy birlikni ta'minlovchi asosiy vosita sifatida talqin etilib, badiiy adabiyot tilining stilistik va lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Abdulla Qahhor ijodi misolida badiiy tilning leksik-semantik, morfologik, sintaktik va fonetik darajadagi ifoda imkoniyatlari, shuningdek, ko'chma ma'noli vositalar, sinonimlar, sheva elementlarining qo'llanishi haqida ham muhim ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Abdulla Qahhor, badiiy til, adabiy til, jonli so'zlashuv tili, morfologik, lingvopoetik, badiiy asar tili, sinonimlar, obrazlilik, emotsionallik.*

НАВЫКИ ВЫБОРА СЛОВА АБДУЛЛЫ КАХХОРА

Аннотация: *В статье узбекский язык рассматривается как главное средство обеспечения национального единства, анализируются стилистические и лингвопоэтические особенности языка художественной литературы. Также пример творчества Абдуллы Каххора дает важную информацию о выразительных возможностях литературного языка на лексико-семантическом, морфологическом, синтаксическом и фонетическом уровнях, а также об использовании образных средств языка, синонимов и элементов диалекта.*

Ключевые слова: *Абдулла Каххор, художественный язык, литературный язык, разговорный язык, морфологический, лингвопоэтический, язык художественных произведений, синонимы, образность, эмоциональность.*

ABDULLA QAHHOR'S WORD CHOICE SKILLS

Annotation: *This article interprets the Uzbek language as the main means of ensuring national unity, analyzes the stylistic and linguopoetic features of the language of literary literature. Also, on the example of Abdulla Qahhor's work, important information is provided about the expressive possibilities of the literary language at the lexical-semantic, morphological, syntactic and phonetic levels, as well as the use of figurative means, synonyms, and dialect elements.*

Keywords: *Abdulla Qahhor, literary language, literary language, living spoken language, morphological, linguopoetic, language of literary works, synonyms, imagery, emotionality.*

Kirish

Har qanday milliy til kabi o'zbek tili ham o'zbek millatini birlashtiruvchi, uning milliy ruhini ifodalovchi vositadir. Chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: — Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. Ona tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar. Badiiy adabiyot tilini o'rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari ko'pdan buyon filologlarni qiziqtirib keladi. Chunki muayyan til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir. Badiiy asar tilida keng qamrovli til birliklari fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga ijodkorning so'z boyligidan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi. Muayyan biror til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati katta ekanligi badiiy asarlar tilini o'rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelayotgani ma'lum. Badiiy asar tili haqida so'z borar ekan, dastavval, tilning bevosita bir-biriga aloqador uch tomonini qayd etish zarur bo'ladi: badiiy til, adabiy til, jonli so'zlashuv tili. Bu tushunchalar bir-birini to'ldirib, ayni paytda bir-biridan ozuqa olib yashaydi. Nazariy manbalarda ularning quyidagi xususiyatlari qayd etiladi:

1) adabiy til grammatik me'yorlarga bo'ysundirilgan, qat'iy talaffuz normalariga ega bo'lgan, jonli xalq tilidagi har xilliklarni bir xillikka olib kelgan tildir;

2) jonli so'zlashuv tili yoki umumxalq tilida grammatika va orfoepiya qoidalariga doim ham amal qilinavermaydi, emotsional leksika va frazeologiya, sheva elementlari, kasb-hunar leksikasi, jargonlar va boshqalardan keng foydalaniladi;

3) badiiy til esa jonli so'zlashuv tiliga asoslangan, adabiy til bilan chambarchas bog'langan, hammaga tushunarli bo'lgan, «so'z ustalari tomonidan pardoqlangan, sayqal berilgan poetik tildir».

Ishning maqsadidan kelib chiqib, faqat badiiy til, ya'ni badiiy asar tili doirasida fikr yuritamiz. «Chunonchi, yozuvchi hayotiy voqea-hodisalarni tasvirlab, obraz yaratar ekan, u so'zlashuv tili boyliklaridan, jonli tildagi sheva va kasb-hunarga oid til birliklaridan ham, adabiy til normalaridan ham keng foydalanadi». Demak, ijodkorning til birliklaridan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi. Badiiy asar tilining badiiy-

estetik vazifalari tilshunoslikning nazariy tomonlari bilan bog‘liq holda tadqiq qilinar ekan, keyingi paytda iste‘molga kirib kelgan lingvopoetika atamasini qo‘llash o‘rinli hisoblanadi. Chunki, «Lingvopoetik tahlil jarayoni faqat yozuvchining tili va uslubi haqida ma‘lumot berish bilan chegaralanmaydi, balki asar yaratilgan davr tilining o‘ziga xosligi, yozuvchining so‘z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullari, badiiy tasvir vositalarining til faktlari vositasida aks ettirilishi, umuman, tilni uning barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo‘ladi».

Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, yozuvchi asarlarining lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga doir keyingi paytdagi ishlarda asosan, leksik-semantik qatlam doirasida fikr yuritilgan. Bu jihatdan Abdulla Qahhor ijodi tilning barcha sathlari uchun boy material bera oladi deb o‘ylaymiz.

Badiiy adabiyotning asosiy vositasi til bo‘lganligi uchun ham badiiy asar tili, obrazli ifoda mahorati masalasi badiiy adabiyot bilan deyarli bir vaqtda vujudga keldi va rivojlandi. Badiiy tilning belgilovchi xususiyatlari obrazlilik va emotsionallik hisoblanadi. Poetik obrazlar esa fikrni ixcham va lo‘nda ifodalashga, yorqin va umumlashgan tasavvurlar yaratishga, ular orqali muayyan hodisa, fikr va his – tuyg‘ularni eslab qolishga yordam beradi. Shu tariqa asar poetikasi vujudga keladi. O‘zbek adabiy tilining rivojlanishi, umummilliy adabiy til darajasiga ko‘tarilishida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosdir.

Shunday ekan, bugungi davr adabiyotiga o‘z hissasini qo‘shayotgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda yozuvchi Abdulla Qahhor asarlarining o‘ziga xos uslubiy jihatlarini o‘rganishga ahd qildik.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Badiiy nutq obrazli va emotsional-ekspressiv ifodalilikka ega ekan, bunda tilning kommunikativ funksiyasi bilan emotsional-ekspressivlik funksiyasi qo‘shilib ketadi. Shunday ekan, badiiy asarni idrok qilish til qurilishini anglash orqali amalga oshiriladi. «Badiiy nutq stili avtorlarga asarning estetik ta‘sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi». Yozuvchilarning til vositalaridan foydalanishdagi individual ijodiy mahorati turlichadir. Badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o‘rganishda, ko‘pincha, leksik, frazeologik vositalar, badiiy tasvir vositalari, ijodkorning okkazonal so‘z va ibora yaratish mahorati kabi masalalar o‘rganiladi-yu, ularning fonetik va grammatik xususiyatlari e‘tibordan chetda qoldiriladi. Lekin Abdulla Qahhor asarlari tahliliga jiddiy yondashilsa, tilning barcha sathlari uchun ham boy poetik material bera olishi kuzatiladi.

Abdulla Qahhor asarlarida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi.

Sinonimlar yunoncha synonymos – bir nomli ya‘ni bir umumiy ma‘noga ega bo‘lgan, qo‘shimcha ma‘no ottenkasi, uslubiy bo‘yog‘i, qo‘llanishdagi xususiyati va shu kabi belgilari bilan farqlanadigan so‘zlar.

Misol: Behuda gap! Mana mening xotinim nima ekanini o‘zim bilaman. Paranjisini tashlab ikki kun ko‘chada yursin-chi! U odamning zardasi qaynab ketdi: —Nega ko‘chada yuradi? Ko‘chada paranjilik yursa ham ayniydi-da! To‘g‘risini aytaymi? Paranjilik xotin harom ishga yaqinroq bo‘ladi. Sabab deng! Agar siz yuziga kulib qaramasangiz, devorg‘a shoti qo‘yib ko‘chaga mo‘ralaydi: ko‘ylaklik olib bermasangiz, tom orqasidan ko‘ylaklik uzatadigan chiqib qoladi. Ochilgan xotin-chi, ko‘ylak olib bermasangiz o‘zi ishlab, o‘zi oladi.

Paranji tashlatmoq, paranji-siz yurishga imkon yoki ruxsat bermoq.

Tuxum bosib, undan jo‘ja chiqarmoq. Tovug‘ o‘nta jo‘ja ochibdi. Musicha bola ochibdi. - Biz yorug‘ dunyoni ko‘rish uchun tug‘ilganmiz, Turg‘unoy!— dedi Maston. - Biz tovuq emasmizki, qanday tuxum bostirsa, shuni ochib chiqarsak.

Yigit hayron edi: Buning husnigina emas, hatto kiygan kiyimi ham mo‘jiza-ku, nega mening otimni biladi, nega yani o‘zini past olgan tovush bilan so‘raydi?, Yigit afv so‘radi: Mening qulog‘imga Saidiy bo‘lib kiribdi, -dedi va cho‘ntagiga solgan qog‘ozlarini yana qo‘liga oldi. Abdulla Qahhor o‘z asarlarida ko‘chma ma‘noli so‘zlarni mohirlik bilan qo‘llay olgan yozuvchilardan. Asarlarini tahlil qilib o‘qish jarayonida bir necha o‘rinlarda ko‘chma ma‘noli so‘zlarni qo‘llaganiga guvoh bo‘ldik. Misol: – Men sizga biron narsa deyabmanmi? Tikib qo‘yarman. Har narsaga ro‘zg‘or achchiq bo‘la bersa... qiyinroq bo‘lar.- dedi To‘rabjon yaktagim kiyayotib, -kambag‘alchilik o‘lsin. — Tanlangan asarlar Bu achchiq leksemasining asil ma‘nosi istemol qilinadigan sabzavotning tami. Bu yerda esa o‘sha achchiq tamga o‘xshatilgan. Yo‘l bo‘yidagi ariqlar afti burishganicha muzlab qolgan, daraxtlar cho‘ltoq supurgiga o‘xshaydi.

XULOSA

Badiiy asar tilining badiiy-estetik funksiyalarini tahlil qilish, asosan, o‘sha davr tilining o‘ziga xos xususiyatlarini, yozuvchilarning so‘z boyligini, til vositalaridan foydalanish usullarini o‘rganishni talab etadi. Bu jarayon, shuningdek, “xalqning ruhi” bo‘lgan tilga ijtimoiy ta’sirlarni tahlil qilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi kunda o‘zbek filologiyasida uslubiyat va uslubshunoslik tushunchalari, shuningdek, uslub tushunchasi aniq va lo‘nda tarzda ta’riflanmagan. Bu borada turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ba’zan chalkashliklar kuzatilmoqda. Bizning fikrimizcha, muayyan janrga xos xususiyatlar uslub tushunchasi bilan ifodalanadi, janrlararo umumiy xususiyatlar esa metod tushunchasi bilan ifodalanishi lozim. “Umumiylik” xususiyatlariga oid tushunchalar metod doirasida o‘rganilishi kerak, “xususiylik”ga oid tushunchalar esa uslub doirasida tahlil qilinadi.

Shuningdek, metod — bu muayyan yozuvchining individual uslubi doirasida tanlangan ifoda usulidir. Yozuvchining individual uslubini o‘rganish murakkab jarayon bo‘lib, u adabiy va lingvistik tahlil imkoniyatlarini birlashtiradi. Bu esa, shoir yoki yozuvchining ijodiy tafakkurining o‘ziga xos jihatlarini qanday yuzaga chiqishini aniqlash imkonini beradi. Bunday tadqiqotlarni “ma’lum bir ijodkorning til bilan ishlash uslubi” sifatida ajratib ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Abdulla Qahhor ijodidagi o‘ziga xos matn jozibadorligi, badiiy bo‘yoqliligi va hissiy ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz.– T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishim kerak.– T.: O‘zbekiston, 2017.
5. Abdulla Qahhor, Tanlangan asarlar.- Toshkent G‘ofur G‘ulom 1987
6. Abdurahmonov G‘., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: O‘zbekiston, 2003. – 351b.
7. Aliyev A.Yu. O‘zbek adabiy tili tarixidan materiallar. –T.: O‘zbekiston, 1996. – 118 b.
8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2002. – 558 b.